

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“SAB‘AI SAYYOR” DA AXIY OBRAZI TAHLILI

Nozima Miravlatova

ToshDO‘TAU ona tili va adabiyot

ta‘limi 4-bosqich talabasi

E-mail: nozimamamurova7@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada turkiy tilning sarboni Alisher Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostonida sahovat va muruvvatpeshalikning tarranum etilishi, asardagi odob-axloq masalalar ko‘lami, yaxshi insonlar doim maqsadlariga yetishi, vafo, mehnatsevarlik, sadoqat inson qadrini ulug‘ qilishi haqida fikr yuritilgan. Hikoyatlar orqali komil inson qanday bo‘lishi kerakligi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Sab‘ai sayyor”, hikoyat, obraz, mehmondo‘stlik, saxovat timsoli, tahlil.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается прославление щедрости и доброты в эпохе “Сабай Сайёр” мастера турецкого языка Алишера Навои, масштаб нравственных вопросов в творчестве, то, что хорошие люди всегда добиваются поставленных целей, верность, трудолюбие. и верность прославляют человеческие ценности. Истории показывают, каким должен быть идеальный человек.*

Ключевые слова: *“Сабай Сайёр”, сюжет, образ, гостеприимство, символ щедрости, анализ.*

Annotation: *This article discusses the glorification of generosity and kindness in the epic “Sabai Sayyor” by Alisher Navoi, the master of the Turkish language, the scope of moral issues in the work, the fact that good people always achieve their goals, loyalty, hard work, and loyalty glorify human value. Stories reveal what a perfect person should be.*

Key words: *“Sab‘ai Sayyor”, story, image, hospitality, symbol of generosity, analysis.*

Mumtoz adabiyotimizning markaziy siymosi hisoblanmish, Alisher Navoiy lirik merosi jahon adabiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiyning hayoti, adabiy, ilmiy, merosini o‘rganish oliyjanob mehnat. “Xamsa” dostonlari bir olamdirki, undagi g‘oyalar, haqiqatlar, necha o‘nlab qahramonlar taqdiri insonlarni abadulabad zavqlantirishga qodir. U “Xamsa” asaridagi deyarli barcha dostonlarida xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalangan. Bu ayniqsa 4-doston “Sab‘ai sayyor” dostonida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Doston hikoya ichida hikoya tarzda yozilgan bo‘lib, tuzilishi, badiiyligi hamda obrazlar ramziyligi bilan boshqa dostonlaridan ajralib turadi. Bu haqida navoiyshunos olim N. G‘anixo‘jayeva ilmiy izlanishlari natijasida asardagi hikoyalar asosida Navoiy davr talabidan kelib chiqib, o‘tmish an‘anasiga, xalq og‘zaki ijodiga suyangan holda masalaga ijodiy yondoshganligi, natijada qator yangi obrazlar yaratilib, ular ideal xarakterga ega ekanligini alohida ta‘kidlaydi.

Asardagi birinchi hikoya shanba kuni qora qasrda, birinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir tomonidan aytilib, saxovat, karam, boylikning o‘tkinchiligi va shu mazmundagi ta‘limiy tushunchalarni o‘zida mujassamlashtirgan. Ushbu hikoyada bosh

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

obraz Axiy va Farrux. Epizodik obrazlar esa parivash, Jusratxon hisoblanadi. Axiy faqir-u fanolarga boshpana bergan, boylikka ruju qo‘ymagan, ezgulik yo‘lida boshqalar manfaatini o‘ylovchi shaxs sifatida yoritilgan. Navoiy Axiyni quyidagi misralar bilan tariflaydi:

*Xojan bore di Halabda g‘aniy,
Mehmondorchilik shioru fani
E‘tibori ko‘p el aro behad,
Johu molig‘a yo‘q hisobu adad
Anga uy erdi mehmonxona,
Anga ko‘p oshnovu begona [5.115-116].*

(Ma‘nosi: Halabda bir boy xoja bo‘lib mehmondorchilik uning odati edi. El orasida obro‘-e‘tibori yuksak bu odamning mol-u davlati hisobsiz bo‘lib, uyi mehmonxonaga o‘xshar, oshna-yu begonalar uchun bu uy har doim ochiq edi).

Bu ta‘riflar orqali Navoiy odamlarni mehmondo‘stligi bilan el-yurt orasida ravnaq topishini, mol-mulki qancha bo‘lmasin, ezgulik yo‘lida sarf etish kerakligi targ‘ib etilgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak payg‘ambarimiz Lut alayhissalom ham mehmondo‘stligi bilan shuhrat topgan ekanlar. Axiyning oqko‘ngil, qo‘li ochiqligi ayniqsa Farruxga ko‘rsatgan himmatida bilinadi. Farrux Sarandib shahrining shohi Jasratxonning o‘g‘li bo‘lib, shohlikni rad etib, faqirlikni afzal bilardi. Tushida Quds parisiga oshiq bo‘lib qolib, ishq yo‘lida necha zahmatlar bilan yorini izlardi. Oxiri yor ishqida kipriklari o‘lim ajdahosiga yengilib yumilayotgan chog‘da Axiy uni qutqarib qoladi. Farruxni o‘z mehmonxonasida izzat-ikromlar bilan kutib olib, bir necha kunlab mehmondorchilik qilishadi. Axiy Farruxdagu horg‘inlik sababini bila olmay mehmondorchilikda may ichirishga qaror qiladi. Qarasaki, Farruxni o‘ziga muftalo qilgan tuyg‘u - ishq. Shu jarayonda Axiy Farruxni hayolini o‘g‘irlagan parivash o‘zining yori ekanligini biladi. Shu tariqa Farruxga parivashni tanishi, ertasi kuni u bilan diydorlashuv bo‘lishini aytadi. Axiy o‘z ayolini Farruxga berish maqsadida suyukli yorini taloq qiladi va parivash Farrux bilan Hind diyoriga jo‘nab ketishadi. Farruxdan esdalik sifatida qora palosini olib qoladi. Farrux yori bilan suhbat chog‘ida Axiyning ayoli ekanligini bilgach bir umr singlisi bo‘lib qolishini takidlaydi. Ko‘rinib turibdiki faqatgina Axiy obrazida emas, har birida: parivashda ham Farruxda ham sadoqatlilik, qat‘iyatlilik, ahdga vafodorlik kabi tuyg‘ular aks ettirilgan. Axiyning o‘z yorini bir oshiqqa berishi esa erish tuyuladi kishiga. Lekin, boshqa tomondan qaraganda Axiy Farruxning ishq o‘tida yonib ado bo‘lishini istamagani, unga o‘zidan boshqa najotkor yo‘qligini o‘ylab dardiga davo bo‘lishni xohlagani chinakam maqtovga loyiq.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Navoiy bu vaziyatni quyidagicha bayon etadi:

Qilmasam, o‘lsa ul muruvvat emas,

Oni yaxshi muruvvat ahli demas.

Kishi bu ishga chora qilmasmu,

Manga ahli haram topilmasmu? [1.304].

Axiy-oqil hamda muruvvatparvar obraz. Uning bu xislatlarini ko‘p o‘rinlarda ko‘rish mumkin. Axiy obrazida ilohiylik, jo‘mardlik kabi sof tuyg‘ular yo‘g‘rilgan. O‘z diyorida zindonband etilib, ozod bo‘lgach faqir, Farrux choponini kiygan holatda yotganida, Axiy Farruxni qay holatda topgan bo‘lsa Farrux ham Axiy xislatlarini o‘ziga jo qilib muruvvatparvarlik yo‘lini tutganligi bosis vayronada uni topadi. Bundan ko‘rinib turibdiki yaxshilik hech qachon yerda qolmaydi. Farrux ham uning yaxshiligini yerda qoldirmaydi. Xalqiga unga qilgan yaxshiliklari haqida so‘zlab beradi. Axiyga o‘z singlisini beradi, bilsaki, o‘zining suyuqli yori bo‘lib chiqadi. Navoiy Axiy va Farrux obrazida madrlilik, sadoqatni mazmun-mohiyatini mohirlik bilan yoritib bergan. Asardagi saxovatparvarlik talqin etgan o‘rinlarga alohida e‘tibor berishimiz zarur. Xususan, Alisher Navoiy o‘zining “Hayrat ul-abror” dostonida sahovat to‘g‘risida “Saxovat har qancha maqtashga arziqli bo‘lsa ham, aql isrof tarzida ko‘p sarflama, aql bekorga isrof etishni baxillik bilan teng tutadi” deya saxovat haqida salmoqli fikrlarini bayon etgan. Hikoyatdagi bosh obraz sifatida Axiy qo‘llanishida ham ramziy obrazi mavjud. Axiy-birodar, oshna demakdir. Axiylik to‘g‘risida Navoiy bitta kulchani ikkiga bo‘lib, yarmini och odamga berganni saxiy deb, o‘zi yemay hammasini muhtoj odamga berganni axiy deb bilishlikni yozgan va bu so‘zlar bosh obraz orqali mukammal darajada yoritib berilgan. Hikoyat orqali ko‘plab oliyjanob hislatlarni: adolatparvarlik, ezgulik, yaxshilik, mardlik, insonparvarlik kabi betakror hislatlarni o‘rganish va hayotga tatbiq qilish insonni o‘zini takomillashishiga, beqarorlik holatidan barqarorlikka o‘tishiga yo‘l ochib beradi. Navoiyning bu va bu kabi asarlari insonni kamolotga yetishuvida o‘tkir tafakkur egasi bo‘lishlikni targ‘ib etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hojiahmedov. Xamsa. Yoshlar. – Toshkent: 2023. 276–308-betlar.
2. Tursunov. Payg‘ambarlar tarixi. Munir. – Toshkent: 2021. 207-bet.
3. S.Xasanov. Navoiyning yetti tuhfası. G‘.G‘ulom.– Toshkent: 1991. 67-bet.
4. Haqqul. I. Navoiyga qaytish. Fan. – Toshkent: 2007. 1–3-betlar.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. Fan. –Toshkent: 1997.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. Fan. – Toshkent: 1998.
7. P. Shamsiyev, S.Ibrohimov. Navoiy asarlari lug‘ati G‘.G‘ nomidagi adabiyot va san‘at – Toshkent: 1972.